

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI ISMLARGA MUNOSABAT

Jamoliddinova Durdonaxon Umidjanovna

FarDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

E-mail: jamoliddinovad@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning "Ota" romanidagi qahramonlarning ismlarini nomlanishi haqida umumiy fikr yuritgan. Bundan tashqari, ismlarning qahramonlarning taqdirlariga bog‘liq yoki bog‘liq emasligi o‘rganilgan. Umuman olganda Ulug‘bek Hamdamning ism tanlashdagi badiiy mahorati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: qahramon, ota, milliylik, ism, yevropalashish, urf-odat, g‘urur

ATTITUDE TO NAMES IN ULUGBEK HAMDAM’S NOVEL “OTA”

Abstract: In this article, Ulugbek Hamdam shared a general opinion about the names of the characters in the novel "Father". In addition, it was studied whether the names are related to the characters’ destinies or not. in general, the artistic skill of Ulugbek Hamdam in choosing a name is revealed.

Key words: writer, hero, father, nationality, name, Europeanization, tradition, pride

Adabiyot fanlarning ichida inson ichki kechimalari, his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashadigan yagona fan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning bosh maqsadi ijtimoiy hayotimizni, badiiy obrazlar yordamida ifodalashdir. Shunday ijodkorlardan biri mustaqillik yillarida sevimli bo‘lishga ulgurgan Ulug‘bek Hamdam o‘z asarlarida obraz xarakterlarini, hayotiy voqeliklarni haqqoniy tarzda tasvirlab beradi. Har bir

asarning qimmatini uning qaysi janrda, qanday adabiy turda yozilgani bilan emas, balki yalt etib ko‘zga tashlanuvchi xarakter va unda o‘z ifodasini topuvchi g‘oya bilan belgilanadi. Yozuvchi o‘quvchiga aytmoqchi bo‘lgan zarur gapini obrazda va uning xarakterida ifodalaydi, bir so‘z bilan aytganda, obraz - asar g‘oyasini tashuvchi vositadir. Adabiyotda turli xil obrazlar ishtirok etgan asarlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Misol uchun, “ONA” to‘g‘risidagi hikoyalarning va qissalarimiz xotiramizga yod bo‘lib ketgan. Doimo onalarimizni kuylaymiz, ulug‘laymiz. Shunday hikoyatlar borki, ota yotgan uyning tomiga chiqish mumkin emasligi, otaga tik boqish oqpadar bo‘lishlikga olib kelishi, ota qarg‘ishini olish ikki dunyoda ham ko‘karmaslik kabi mazmunga ega. Ota nasihati o‘laroq farzand kamolotga yetishi, ulug‘ martabalarni egallashi, ikki dunyo saodatiga erishishi mazmunini ifodalovchi, pandnoma ruhidagi kichik rivoyatlar ham ko‘plab uchraydi. Zero, “Ota rozi – Xudo rozi”. Ammo aynan “OTA” timsoli keng mushohadada yoritilgan, ya’ni bosh qahramon darajasida olib chiqilgan asarlar nihoyatda kam. Bugungi maqolamiz aynan shu xususida .

O‘zbek tilining “Izohli lug‘at” ida ota so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Ota” farzandli, bola-chaqali er kishi. (O‘z bolalariga nisbatan). Misol: Ota bo‘lmay, ota qadri bilmas.[2,95]

O‘zbek va jahon adabiyotida ham ota obraziga o‘ziga xos tarzda yondashgan ijodkorlar sifatida Turgenevning “Otalar va bolalar”, Balzakning “Gorio ota”, To‘g‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Isajon Sultonning “Qismat”, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” kabilarni keltirishimiz mumkin. Ammo, bu asarlarda ham ota siymosiga alohida to‘xtalish berib o‘tilmagan. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani ayni mavzu xususidagi o‘ziga xos mental xususiyatlarni namoyon etgan.

Bu romanda haqiqiy o‘zbek otasi siymosiga duch kelasiz. Yozuvchining ta’kidiga ko‘ra asar “chin otalarga bag‘ishlanadi” deb aytgan. Asar muallifi bu voqeani yoshligida o‘zi yashaydigan viloyatda, ya’ni Andijonda bo‘lib o‘tganini ham eslatib o‘tadi. Asar Oychechak opaning o‘n besh yildan beri tirnoqqa zor o‘g‘li Po‘lat va kelini Yog‘duning farzandsizligidan boshlanadi. Asarni o‘qir ekansiz, yozuvchining ism tanlashdagi mahoratiga ham tasanno aytasiz. Yozuvchi qahramonlarga ism

tanlashda turkonalikka alohida e'tibor qaratadi. Romanda bosh obrazlardan tortib, epizodik obrazlargacha turkona ism tanlangan. Po'lat ismida ham juda katta matonat yashiringan. U o'z ismiga monand ko'p ishlarga irodasi metin bo'ladi. "Ne-ne odamlar yuziga chiqqan bitta chipqondan o'lib ketayotgan bir paytda uning o'g'li bir emas, ikki urushdan omon qaytadi". [1,61] Hatto bolali bo'lmagan paytida ham yoriga doim dalda beradi. Uning qovurg'asidan yaratilgan Yog'du haqida ham so'z borar ekan, Po'latning o'zi aytganidek, "Yog'dusiz uning dunyosi zulmatga g'arq bo'lar edi". Zero, Po'latning urushdan omon qaytishiga ham, sabr matonatli bo'lishiga ham uning hayotidagi "yoog'dusi" nuri sababchidir. Yana shunday ismlardan O'tkir aka ya'ni Po'latning otasiga ham to'xtalsak, u "xotining gapini eshitar, ustiga-ustak, "xo'p, xo'p" derdiyu, deyarli hamma aytganlarining teskarisini qilardi. Uning o'tkirligi ana shunda edi".³ U o'z ismiga yarasha o'tkir, mard, gapining ustidan chiqadigan, ajdodlar xotirasi bilan yashaydigan, gapini doim xotiniga o'tkazadigan odam edi. Asarning yana bir qahramonlaridan Sevinch "ismi o'zi bilan tug'ilgan qiz" edi. "Po'lat va Yog'duning quvonchi nafaqat yuraklarga, balki olamlarga sig'masdi! Nihoyat, bu xonadonda uzoq kutilgan chaqaloq tug'iladi va oila a'zolarining qalbiga o'zi mitti bo'lsa-da, bir olam quvonch olib kiradi". Qarang: "Chaqaloqqa Sevinch deb ot qo'yishdi! Chunki sevinchli edi ular! Ming yillik g'ussa bor edi O'tkir akaning oilasida". [1,79] Asar yozilishida yozuvchi Sevinchga oldin Orzu ismini qo'yimoqchi bo'ladi. Chunki oila bu farzandni orziqib kutishadi, naq o'n besh yil. Bolali bo'lish ota-onaning orzusi bo'ladi.

Romandagi voqealar markazida turga yana bir obrazlarda biri Oychechak opadir. U ismiga monand oy ya'ni, erka qiz bo'lib, erkaligi yo'qolmaganini, aytgan ishi bajarilmasa ko'ngli joyiga tushmasligini guvohi bo'lamiz.

Romandagi bir obrazga nisbatan har bir asar mutolaasiga kirishgan inson qalbida nafrat paydo bo'ladi. Bu obraz Erboy obarizidir. Bu ismning tanlanishiga sabab er yigit bo'lishligi, xalq xizmatini qilishligi uchun edi. Lekin Erboy yoshlikdagi keki tufayli do'stiga yaxshigina "yordam bergan edi". Qizining shu holatga tushishida ham Erboy tom ma'noda "erlik" qildi.

Bundan tashqari asarda milliylik an’anaviy ham o‘ziga xos tarzda juda ko‘plab joylarda tasvirlangan. Yana ismlar haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu oilada o‘g‘il-qizlarga turkona ot qo‘yishardi. “Shundog‘am bir tomonimiz arabi-yu boshqa tomonimiz forsiy otlarga to‘lib ketgan. O‘rtada muvozanatni saqlash uchun, otlarimiz aytilganda, qaysi millatga tegishli ekanimiz bilinib tursin. Yo‘q, men boshqa millatlar ismlarini qo‘yishga qarshi emasman. Faqat me‘yor bo‘lsin, deyman”

Bu parchada yozuvchi O‘tkir aka tilidan bugungi kundagi farzandlarga ism qo‘yishdagi og‘riqli nuqtalarimizga tegib o‘tganday go‘yo. Hozirda ota-onalar farzandlariga ism tanlashda “yevropalashish” an’anasiga amal qilishmoqda. Yoqtirgan futbolchisi, ashulachisi yoki kino aktyorining ismlarini hech ikkilanmasdan qo‘yishmoqda. Ism qo‘yish Alloh taoloning otalar zimmasiga yuklagan eng asosiy vazifalardan biridir. Farzandiga to‘g‘ri ism tanlash ota oldida turgan mas’uliyatli burchdir. Farzandga chiroyli ism qo‘yish kerakligi saxih hadislarda ham kelgan.

Yana shu o‘rinda Po‘latning urush paytidagi birga yelkama-yelka turgan do‘stlarining o‘limiga bildirgan munosabati ham o‘ziga xosdir. “Po‘lat ko‘zlarini bir og‘ir yumib ochdi. Shuning o‘zi quroldosh do‘stlariga tutilgan motam, ko‘rsatilgan ehtirom, o‘qilgan duo edi”. [1, 41] Bunday qilishiga asosiy sabab esa vaziyatning yomon ekanligi edi. Jangda bundan ortiq ish ham qilib bo‘lmas edi. Oilaning birgalikda namoz o‘qishligi, o‘zbek milliy an’analariga monand ota-bobolar yodi bilan yashashligi ham milliylik timsoli edi. Ular doim ajdodlar ruhini e‘zozlar, ularga alohida ehtirom ko‘rsatar edi. Ayniqsa, bu holat O‘tkir aka va Oychechak opa obrazlarida yaqqol ko‘rinardi. Yana bir oilaviy an’analaridan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida uchraganidek, oila keksalari vodiy tomondagi udumga ko‘ra, bir birlariga to‘ng‘ich farzandlarining ismlari bilan murojaat qilishar edi. Bu oiladagi munosabatlarni mustahkamlash uchun ko‘prik vazifasida edi. Asardagi milliylikning yorqin bir ifodasi deb, Po‘lat ota obrazi g‘ururli, oriyatli, vatani, oilasi, farzandi uchun jonini berishga tayyor inson sifatida gavdalanganini aytish mumkin. Romanda ota farzandini qay darajada yaxshi ko‘rsa ham lekin or-nomus masalasi ular uchun birinchi o‘rinda ekanligini Po‘lat ota qizi Sevinchning tug‘ruqxonada benikoh farzand dunyoga

keltirayotganini eshitgan vaqtidagi holatidan bilish mumkin. Erkaklar (otalar, akalar, ukalar) uchun butun dunyodagi barcha narsalar bir taraf bo‘lsa, or-nomus, andisha, ularning g‘ururi esa bir taraf. Mana shu ikkala taraf o‘rtasidagi muvozanat buzilsa ular hatto o‘z farzandlarining qotiliga ham aylanishi mumkin.

Qasos degan jirkanch bir tuyg‘u taqdirlarni shunday o‘zgartirib yuboradi, bu tuyg‘u o‘z ishini bajarib bo‘lgach qasoskorni ham tashlab ketadi hattoki?! Po‘lat ota ham g‘urur, or-nomus masalalarini o‘ylab bunday ishga qo‘l uradi. Ota yetti yil qamoqda o‘tirgan bo‘lsa-da, bir zum bo‘lsin qilgan ishidan afsuslanmasdi. [3] Roman oxirida Po‘lat ota Imom domlaning gapini hamda qizi Sevinchning otasining yuziga oyoq qo‘ymaganini, ya’ni Fakil og‘a bilan nikohi borligini eshitganidan keying holati tasvirlangan, buni otaning umri so‘nggidagi iqrornomasi desak adashmagan bo‘lamiz.

Romanda ijodkor nafaqat voqealar rivojini tasvirlashda balkim romanda keltirilgan har bir qahramonga ism tanlashda o‘ziga xos usuldan foydalangan. Ya’ni ularning turkona, milliy, mental tafakkur namunasi bo‘lgan ismlar orqali nomlagan. Bu ijodkor ijodining qanchalar yaxshi ekanligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ulug‘bek Hamdam " Ota" romani -- Toshkent. Yangi asr avlodi 2022-yil
2. “O‘zbek tilining Izohli lug‘ati”. Toshket-1981.
3. Turdiyeva N. - “Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi ota obrazi